

KLASSIK ARAB TILIDA YORDAMCHI SO‘ZLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI

Nazirillaxonova Muxlisaxon

Alfraganus Universiteti, Filologiya fakulteti,

Sharq filologiyasi kafedrası,

Arab filologiyasi yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Jo‘rayeva Madina

Alfraganus Universiteti,

Sharq filologiyasi kafedrası dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada klassik arab tilidagi yordamchi so‘zlarning o‘rni va ularning funksiyalari nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada yordamchi so‘zlarning ism va fe‘llarga bo‘lgan ta’siri, gaplar orasidagi sintaktik munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rni, hamda ma’no jihatidan yuzaga keltiruvchi funksiyalari batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, shart konstruktsiyalari, sabab-maqсад bog‘lovchilari, ta’kidlovchi birliklar va istisno shakllarining grammatik tuzilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari arab tilida murakkab grammatik qurilmalarning to‘g‘ri tushunilishi va qo‘llanishi uchun yordamchi so‘zlarning chuqur o‘rganilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Yordamchi so‘zlar, arab tili, grammatika, atf, jar, harflar, inkor, sintaktik funksiyalar, ism, fe‘l.

Abstract . This article provides a theoretical and practical analysis of the role and functions of auxiliary particles in the Arabic language. It examines the main categories of particles—including conjunction, preposition, negation, conditional, exception, emphasis, interrogative particles, and adverbial markers—and explains them through examples. The article also analyzes the influence of these particles on the inflection of nouns and verbs, their role in forming syntactic relations between

يليه و حروف الجر لانها تجر معانى الافعال الى ما يليه او لان اثرها فيما يليه الجر " و هي " اى حروف الجر مِنْ، و الى و حتى و في و الباء و اللام و رُبَّ و واوها و واو الْقَسَمِ و تَأْوُهُ و عَنْ و على و الكاف و مُذْ و مُنْذُ
 «Old ko'makchilar degani fe'lning yoki fe'l ma'nosini o'zining yonida kelgan narsaga bog'lashdir. «Fe'l yoki fe'lning ma'nolari» deyildi, quyidagilar fe'lning ma'nolarini bildiradi: إسم الفاعل (aniq daraja sifatdosh) va إسم المفعول (majhul daraja sifatdosh) va الصفة المشبهة (fe'ldan yasalgan sifatlar) va المصدر (masdar) va الطرف (hol) va الجار va المجرور (old ko'makchi va unga tobe bo'lib qaratqich kelishigida keluvchi so'z) va boshqalar. «O'zining yonida kelgan narsaga bog'lash» deyildi, bu degani ismga, ya'ni fe'lning ma'nosini ismga bog'lash degani, masalan: «Men Zaydning yonidan o'tdim» -أنا مارّ بزيد – مررت بزيد. Old ko'makchilarni deb ham nomlanadi. Boisi fe'lning nisbati yoxud fe'lning ma'nosi ushbu harflar yordamida o'zidan keyin kelgan narsa bilan aloqador bo'ladi. حروف الجر deb nomlanganiga sabab, fe'lning ma'nosini yoki fe'lning ta'sirini o'zining yonidagi narsaga yetkazadi. Old ko'makchilar quyidagilardir:

مِنْ، و الى و حتى و في و الباء و اللام و رُبَّ و واوها و واو الْقَسَمِ و تَأْوُهُ و عَنْ و على و الكاف و مُذْ و مُنْذُ
 45. "و خَلَا و عَدَا و حَاشَا

Jomiy ushbu old ko'makchilarni uchga bo'ladi: harf – yordamchi so'zlar ma'nosida kelishini, harf va ism, shuningdek, harf va fe'l ma'nosida kelishini ta'kidlagan.

Abdurahmon Jomiy «Al-Favoidu-z-Ziyo'iyya» asarida harf so'z turkumini ularning ma'nolariga ko'ra ajratib, alohida terminlar bilan sharhlagan. Muallif harf turkumiga kiruvchi predloglar, ko'makchilar va barcha yordamchi so'zlar o'rtasida qat'iy chegara yo'qligini izohlagan. Jomiyga ko'ra ular turli xil grammatik funktsiyaga ega bo'lishi mumkin. Ibn Hojib yordamchi so'zlarni faqat fe'l yoki fe'lning ma'nolarini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. Jomiy esa, mazkur so'zlar fe'lning ma'nosini ismga bog'lash uchun xizmat qilishini ham

⁴⁴ (FZ.241b).

⁴⁵ (FZ.242b).

aytib o'tadi.⁴⁶

Olim old ko'makchilarni uchga bo'ladi: harf-yordamchi so'zlar ma'nosida kelishini, harf va ism, shuningdek, harf va fe'l ma'nosida kelishini ta'kidlagan va ularning har birini gapdagi vazifalarini, ma'nolarini alohida sharhlab, munosabat bildiradi. Masalan, birgina ب bilan predlogining jumlada yetti xil mazmunda kelishini ta'kidlaydi va misollar asosida uni isbotlab beradi.

Abdurahmon Jomiyning o'ziga xos bo'lgan uslubi shundaki, olim arab tilshunosligida qo'llanilayotgan har bir grammatik kategoriyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashtirib, nima uchun qo'llanilayotganini aniq dalillar bilan sharhlaydi. Jomiyning mana shunday yondashuv uslubi uni boshqa arab mumtoz tilshunos olimlaridan ajratib turadi.

Jomiy «undalmani ifodalovchi yuklamalar»ning qo'llanilishdagi farqli tomonlariga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, ularning beshtasini sharhlagan. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiruvchi mazkur besh ta yuklamalarning asosiy vazifasi masofani anglatishda aniq farqni ifoda etish ekanligini ta'kidlaydi.

«Al-Favoidu-z-Ziyo'iyya»da Jomiy keltirilgan الحروف العاطفة «biriktiruvchi bog'lovchilar» faslida teng bog'lovchilar haqidagi ma'lumotlar muhimdir. و , , ف va ف , , ف va ف teng bog'lovchilarining gapdagi ma'nolari mukammal sharhlangan bo'lib, mazkur bog'lovchilarning uyushiq bo'laklarni bog'lashdagi muhim vazifalari va ma'nolari, ishlatilish o'rinlari mukammal sharhlangan. و bog'lovchisi gapning ikkita uyushiq bo'lagini to'g'ridan-to'g'ri bog'lasa, ف bog'lovchisi ularning ketma-ketligini, و va ف bog'lovchilari esa ma'no ketma-ketligini ifodalab, orada biroz muddat o'tganini bildiradi. Jomiy asarda ف bog'lovchisining muhlati ف ga nisbatan ozroq, و bog'lovchisiga nisbatan esa ko'proq ekanligini ta'kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy harf so'z turkumi haqida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan va hozirgi kunda ham ba'zi bir farqlarni hisobga olmaganda Jomiy keltirgan harf turkumiga oid ma'lumotlar arab tili grammatikasida qo'llanib kelmoqda.

⁴⁶ М.А.Жўраева. Абдурахмон Жомий «Ал-Фавоиду-з-Зиёиййа» асарининг лингвистик тадқиқи. Монография – Т.: 2020, Б.137

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмон Жомий «Ал-Фавоиду-з-Зиёиййа» (Шарҳ Кофия). Ўзбекистон ФА ШИ. Қўлёзма. №9665. – 280 в. (қисқартмада – FZ).
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat nashriyoti, 1997. 1-jild, B.352.
3. Sībawayh. Al-Kitāb fi an-Nahw. Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1999.
4. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
5. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
6. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
7. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 493-498.
8. RAXIMJONOV, M. (2025). PUBLIC OPINION ABOUT KHOJA AKHRARI VALIA AND MIRZA ULUGBEK. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 73-77.
9. Nugmanovich, R. M. Self-education And Self-improvement. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 998-1001.
10. Турсуналиева, М. А. (2021). “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО” ДОСТОНИНИНГ НАЪТ ҚИСМИНИНГ БЕРИЛИШИ (ОГАХИЙ ТАРЖИМАСИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ АСОСИДА). *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 357-360.
11. Musaev, I. X. (2025, December). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ESTETIK VA FALSAFIY TALQINI SAIDBEK HASANOV TADQIQOTLARIDA. In *Conferences* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-70).

12. Victoria, M. (2022). Peculiarities of the functioning of borrowings in the media of the arab countries.

13. Raxmonov, A. K. (2025). *Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining o'rganilishi. Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.

14. Raxmonov, A. K. (2024). *Creating favorable ecosystems for youth entrepreneurship in Uzbekistan*. In *Collection of Articles of the International Scientific Conference on the Topic of “The Future of Youth and Entrepreneurship in Education” Within the 10th UNESCO–APEID (Educational Innovations Programme for Asia-Pacific Development) Meeting on Entrepreneurship in Education* (pp. 67–71). Alfraganus University.

15. Raxmonov, A. K. (2024). *Mutarriziy va uning “Nahv risolasi”*. In *Sharq tillari tadqiqi va ta'limi muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (pp. 211–214). Oriental University.

16. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahw” asarida grammatik kategoriya talqini va uning o'zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida: Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari* (pp. 136–139). Alfraganus University.

17. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarining Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari: Tekstologik va metodologik tahlil*. *Oriental Journal of Philology*, 6(I3), 588–599. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-60>

18. Жураева, С. Х. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.

19. Жураева, С. Х. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОЛОДЁЖНОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(2), 531-536.